

**YANGI O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR, IMKONIYATI
CHEKLANGAN INSONLAR UCHUN CHEKSIZ IMKONIYATLAR YARATISH ULAR
YASHAB TURGAN JAMIYATNING BURCHIDIR.**

Xudayberdiyeva Mohichehra Alisher qizi

Buxoro davlat universiteti Tarix-Yuridik fakulteti
Yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs 5/2 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12656982>

Annotatsiya. *Islohotlar va yangilanishlar davrida yashayapmiz. O'zbekiston bugun ulkan marralarni zabt etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan: 2030 yilga kelib Global innovasion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirish, raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish, yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlarini aholi jon boshiga ikki baravar oshirish va boshqa ko'plab ustuvor maqsadlarni ko'zlaganmiz. Ko'zlangan marralarni zabt etish, ulkan rejalarini amalga oshirish esa, eng avvalo, barchadan birdek fidoiylilikni, O'zbekistonimizning 34 million aholisidan faollikni, Vatani taqdiri va istiqboli uchun o'zlarining samarali mehnatlarini ayamalik talab etadi.*

Maqsadga erishish - birlikni va har birimizdan ishonch, shijoatni talab etadi.

Kalit so'zlar: *Imkoniyatlari cheklangan insonlar, ruhiy holat, ichki hissiyot, muloqot qilish, samimiy, ma'naviy olami, mehr-oqibat.*

**DEMOCRATIC CHANGES IN THE NEW UZBEKISTAN, CREATING UNLIMITED
OPPORTUNITIES FOR PEOPLE WITH LIMITED OPPORTUNITIES IS THE DUTY
OF THE SOCIETY IN WHICH THEY LIVE.**

Abstract. *We live in a time of reforms and renewal. Today, Uzbekistan has set itself the goal of achieving great goals: by 2030, it will become one of the 50 most advanced countries in the world according to the Global Innovation Index rating, develop its digital economy, and increase its GDP per capita. doubling per capita and many other high-priority goals. Achieving the desired goals and implementing ambitious plans, above all, requires the same dedication from everyone, the activeness of the 34 million inhabitants of Uzbekistan, and their effective work for the fate and prospects of the Motherland.*

Achieving the goal requires unity and confidence and courage from each of us.

Key words: *People with disabilities, mental state, inner feeling, communication, sincere, spiritual world, kindness.*

**ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПЕРЕМЕНЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ, СОЗДАНИЕ
БЕЗОГРАНИЧЕННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ
ВОЗМОЖНОСТЯМИ – ДОЛГ ОБЩЕСТВА, В КОТОРОМ ОНИ ЖИВУТ.**

Аннотация. *Мы живем в эпоху реформ и обновлений. Сегодня Узбекистан поставил перед собой задачу достижения великих целей: к 2030 году он войдет в число 50 самых передовых стран мира по рейтингу Global Innovation Index, разовьет свою цифровую экономику, увеличит ВВП на душу населения в два раза. на душу населения и многие другие приоритетные цели. Достижение желаемых целей и реализация амбициозных планов, прежде всего, требуют одинаковой самоотдачи от всех, активности 34-миллионного населения Узбекистана, их эффективного труда на благо судеб и перспектив Родины.*

Достижение цели требует единства, уверенности и мужества от каждого из нас.

Ключевые слова: Инвалиды, психическое состояние, внутреннее чувство, общение, искренний, духовный мир, доброта.

KIRISH

Dunyo aholising demografik holatiga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar sonining o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shunday ekan, biz imkoniyati cheklangan bolalarga ijtimoiy xizmatni ko'rsatishda birinchi marta ularning ruhiyatini sog'lomlashtirishga va jonlantirishga e'tibor qaratishimiz hamda psixologiyasini o'zgartirib, yangi muhitga yangi o'zgarishlarga tez moslashishi uchun harakat qilishimiz lozim. Ruhiiy holatdan tashqi qiyofa va xatti- harakatga nisbatan ham yaqqolroq dalolat beruvchi narsa, albatta, aytilayotgan gap- so'z va uning aytilish ohangidir. Mana shu sababli imkoniyati cheklangan bolalar bilan ijtimoiy xizmatni olib borishda, ijtimoiy ish xodimlari zaruriy mashg'ulotlaridan o'tgan bo'lishlari, hamda davomiy ravishda ilmiy, amaliy tajribalarni oshirib borishlarini ta'minlashlari kerak bo'lib bunga: bolalarning huquqlari va qonun, bolalarga nisbatan zo'ravonlik, shu bilan birgalikda imkoniyati cheklanganlarning jismoniy, ruhiy va aqliy nuqsonlari bilan bog'liq jarayonlar haqida aniq tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Shu bilan birgalikda ijtimoiy ish sohasi mutaxassislari imkoniyati cheklangan bolalar kimligini, va ular qanday holatda ekanligi borasidagi, aniq malumotlarga ega bo'lishlari, hamda bu turdagi insonlarda kechadigan barcha o'zgarishlar va nuqsonlarni hisobga olgan holda mullaqot qilishlari lozim.

ASOSIY QISM

Dunyo jamiyatida imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay, turli sohalarda ulkan cho'qqilarni zabt etgan insonlar kam emas. Yuksak diniy maqomlarga erishgan yoki sportchi, mashhur san'atkor, hatto siyosiy yetakchi bo'lgan shaxslar ham talaygina. Iste'dodsiz inson yo'q, faqat buni sezmaydiganlar bor, daegan ekan dunyo olimlaridan biri. BMTning ta'kidlashicha nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga jalb qilish inson huquqlarini ta'minlash, barqaror rivojlanishga erishish va tinchlik va xavfsizlik o'rnatish uchun juda muhimdir. Bugungi kunga kelib dunyo aholisining 1 milliarddan ortig'ida, ya'ni yetti kishidan kamida bittasida muayyan bir turdagi nogironlik mavjud. Shularning 100 milliondan ortig'ini bolalar tashkil etadi.

Demak, safimizdagi imkoniyati cheklanganlarning teng huquqligini ta'minlash, qadr-qimmatini himoya qilish darkor. Oxirgi paytda inklyuziv ta'lim tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda, ko'pchilik bu tushunchani nogironligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir maktabda, bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi deb tushunadi xolos. Yani imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. Kam ta'minlangan oilaning farzandi kambag'al oiladan bo'lganligi uchun ta'mirlanmagan maktabga borishi kerak degani emas albatta.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishini har tomonlama rag'batlantirish hamda cheklovlarning har qanday shakllariga yo'l qo'ymaslik orqali amalga oshiriladi.

Davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotiga jalb etishni ta'minlashgan doir chora-tadbirlarni amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ishlari bo'yicha idoralararo kengash ishida va majlislarida ishtirok etish. Vakolatli davlat organlari bilan birgalikda sport, ma'rifiy va madaniy- ommaviy tadbirlarni tashkil etish yo'li bilan ishtirok etishga haqlidir.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlariga daxldor qarorlarni tayyorlash hamda qabul qilishda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari va ularning vakolatli vakillari bilan hamkorlik qiladi.

Davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari murojaatlarni ko'rib chiqayotganda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlari talablariga rioya etishi, ushbu murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi uchun choralar ko'rishi, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklari tiklanishini hamda ularning qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rishi shart.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o'z yonidan pul to'lab xususiy maktablarda o'qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar ko'p. 2020 yil 13-oktabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanalgan:

Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitadigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'liqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitadigan ta'lim muassasalarida adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan.

Hozirgi kunda bu sanab o'tgan muammolarimiz hal qilinib, aksincha yoshlarimizga yani biz yoshlarga keng imkoniyatlar eshigi ochildi desam hech adashmayman. Masalan, biz yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlarni sanab adog'iga yatmaymiz. Bu imkoniyatlarning barchasi biz yoshlarga bo'lgan ishonch deb o'ylayman. Masalan: Imkoniyati cheklangan yoshlarning bandlik masalalari, qonunchilikka ko'ra xodimlar soni 20 nafardan oshgan barcha tashkilotlarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 3% miqdorida ish o'rinlari zaxiralanishi ko'zda tutilgan.

Ish beruvchi tomonidan yil davomida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ish o'rnini zaxiralashi belgilangan. Qanday qilib ish beruvchi ma'lum bir vakansiyani yil davomida zaxiralab qo'yishi mumkin? Masalan: qorovul ish o'rnini zaxiralagan ish beruvchi nogironligi bo'lgan mos nomzod kelmaguncha bu ish o'rnini saqlab turish kerakmi yoki har oyda zaxiralangan ish o'rnini xususiyatlari o'zgaradimi? Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatalar tengligi ular uchun obyektlar hamda xizmatlardan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardan, sog'liqni saqlashdan, ta'limdan, ishga joylashishdan, shuningdek axborotdan va aloqa vositalaridan foydalanish kafolatlarini yaratishga hamda ulardan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini berishga doir chora- tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ta'minlanadi.

XULOSA

Ushbu holat har yerda bor. Shunga qaramay, butun dunyo bo'ylab bir milliard atrofidagi imkoniyati cheklangan insonlarning juda ko'p qismi ko'zdan yashiringan bo'lib, ularning ehtiyojlari va tashvishlariga e'tibor berilmaydi, ularning hissiyotlari hech kimni qiziqitirmaydi.

Nima uchun? Barchamiz yaratganning bandalari emasmizmi axir?

3- dekabr Xalqaro imkoniyati cheklangan insonlar kuni har yili ularning huquqlari va farovonligini jamiyat va taraqqiyotning barcha sohalarida targ'ib qilish orqali nishonlanadi.

Nogironligi bor shaxslar turli tarafdin imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin.

Oyog'i yoki qo'li ishlamaydigan yoshalar o'qishga borishga, mustaqil harakatlanishga qiynaladi. Ular uchun pandemiya boshlangach uyda ta'lim olish nisbatan qulayroq bo'ldi, menimcha. Lekin ko'zi ojiz imkoniyati cheklanganlar uchun masofadan ta'lim olish ancha qiyin.

Men universitet talabasiman. Ko'pchilik OTMlarda Moodle tizimi orqali darslar davom etmoqda. Bunday eng katta muammo- Moodle'dagi ma'lumotlarni ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun moslashtirilgan gapiruvchi dasturlar yordamida o'qib bo'lmasligida.

Platformaga yukalangan ma'lumotlarni olib kimgadir o'qitishga to'g'ri keladi. Buning esa imkoniyati deyarli yo'q. O'zim mustaqil o'qishga harakat qilaman desam esa o'zbek tilidagi ilmiy asarlarni o'qib bera oladigan nutq sintezatori yo'q.

Men kompyuterda mustaqil va ancha yaxshi ishlay olaman, lekin kompyuter texnologiyalaridan mustaqil foydalana olmaydigan ko'zi ojizlar ham ko'p. Pandemiya davrida ular jamiyatdan battar uzilib qolishdi. Onlayn ta'lim sharoitlarida har qancha harakat qilinsa ham, ko'zi ojizlar uchun samarali usullarni topish qiyin.

O'qituvchilar ham talabalarni tushunishi, aloqani samarali tashkil etishi kerak. Masalan, bir darsdan yangi o'qituvchi dars o'ta boshlasa va u guruhdagi imkoniyaticheklangan talabalarni bilmasdan turib, ulardan sog'lom insonlar bilan bir narsani talab qilmasliklari kerak. Masalan, men o'zim xohlasam ham Moodle platformasi orqali o'qiy olmayman.

Bunday paytda imkoniyati cheklangan talaba o'z dunyosida, o'z qobig'ida qolib ketishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan yoshalarning aksarida kompyuter yo'q. Bizga masofaviy ta'lim bilan bog'liq ko'p arizalar keladi. Muammo shundaki, ko'pchilik nogiron bolalarda kompyuter yo'q.

Ikkinchi asosiy muammo-internet qimmatligi. Bu bo'yicha bizning takliflarimiz ham bor.

Ko'p davlatlarda imkoniyati cheklangan o'quvchi, talabalarga kompyuterlar tekinga foydalanishga beriladi. Mayli, davlatning bunga imkoni bo'lmas. Shuning uchun imkoniyati cheklangan yoshlar uchun kompyuterlar kredit asosida berilsa, yaxshi bo'lardi.

Bundan tashqari, imkoniyati cheklanganlarga internet trafiklari uchun oylik to'lovlarda hech bo'lmasa 30 foiz chegirma qilib berilsa, yaxshi bo'lardi. Sababi, imkoniyati cheklangan shaxslarning nafaqa puli yuqori emas: 450 ming so'm, eng ko'proq pul oladiganlari ham 650 ming so'm atrofida nafaqa oladi. Ular qaysi pulga kompyuter olishi, internet trafigiga yetkazishi mumkin? Ta'lim olayotgan imkoniyati cheklanganlar shu tomonlarni qiyinalmoqda.

REFERENCES

1. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni (2017-yil 1-dekabr pf-5270 son).
2. "Nogironlarning huquqlari to'risida"gi konvensiya (2006-yil 13-dekabr)
3. "Nogironlar uchun imkoniyatlarni tenglashtirish bo'yicha qoidalar" (BMT 1993-yil)